



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 104-111 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TADBIRKOR AYOLLAR FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI



Kamoldinova Nargiza Anvarovna,
Andijon Mashinasozlik instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligining hozirgi holati va uni yanada rivojlantirishdagi muammolar batafsil ko‘rib chiqiladi.

Аннотация: Данная статья будет опубликована в Узбекистане, в республике текущее состояние женского предпринимательства и более детально раскрыты проблемы.

Abstract: This article in Uzbekistan in the republic of women entrepreneurship current status and it more in development of problems in detail seeing will be released.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, kichik biznes va tadbirkorlik, gender tenglik, ayolar bandligi, ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar, zamonaviy tadbirkorlik.

Ключевые слова: женское предпринимательство, малый бизнес и предпринимательство, гендерное равенство, женская занятость, соц. - экономические реформы, современное предпринимательство.

Key words: women entrepreneurship , small business and entrepreneurship, gender equality, women employment, social. - economic reforms , modern entrepreneurship.

Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda band aholining 50 foizdan ortig‘i kichik va o‘rta biznes sohasida ishlaydi. Ushbu sektor ko‘plab rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning yalpi ichki mahsulotiga 50% dan ortiq hissa qo‘shadi. Kichik va o‘rta biznes sektorining rivojlanishi ko‘pincha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashning asosiy omili hisoblanadi. Respublikamizda oxirgi 10 yillikda kichik biznes va tadbirkorlikning YaIM dagi ulushi o‘rtacha 58,89 % ni, Andijon viloyatida esa, ushbu ko‘rsatkich 73,26 % ni tashkil etmoqda.

O‘zbekistonda bugungi kunda mamlakat aholisining 17 mlndan ziyod qismini xotin – qizlar tashkil etmoqda. Shu boisdan xotin – qizlarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi butun O‘zbekistonda tadbirkorlikning ajralmas qismi bo‘lib, mamlakat iqtisodiyoti rivoji hamda umumiy farovonlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ayni paytda bu kichik biznes va tadbirkorlikda xotin – qizlarning ulushi 25 foizni tashkil etmoqda[1]. Ushbu yo‘nalish oldida turgan ustuvor vazifalardan biri tadbirkorlik sub‘ektlari o‘rtasida xotin – qizlar ulushini 40 foizga yetkazishdir. Buning uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda, bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirildi[2].

Davlat tomonidan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, Respublika xotin – qizlarini tadbirkorlikka keng jalb etish choralari ko‘rilmoqda. Oxirgi besh yil davomida mazkur sohaga oid 80 dan ortiq me‘yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xuquqiy me‘yoriy xujjatlarning asosi bo‘lgan *“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida*, xotin – qizlarni qo‘llab – quvvatlash tizimini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, gender tengligini ta‘minlash bo‘yicha ham chora – tadbirlar belgilangan.

2023-yilda faoliyat ko‘rsatgan tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 41 249 tani (yoki jamiga nisbatan 9,9 %) tashkil etgan[3]¹. Hududlar bo‘yicha eng ko‘pi Toshkent shahri (12 055 ta), Toshkent viloyati (5 305 ta), Samarqand viloyati (3 723 ta) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3 202 ta) hissalariga to‘g‘ri kelmoqda[4].

Ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 5 460,9 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 1 636,9 mlrd so‘mga ko‘paygan[5].

2023- yilda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum 37 611,4 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Hududlar bo‘yicha eng ko‘pi Toshkent shahri (20 591,7 mlrd so‘m), Toshkent (4 148,7 mlrd so‘m), Samarqand (2 124,8 mlrd so‘m) va Buxoro (1 907,4 mlrd so‘m) viloyatlari hissalariga to‘g‘ri kelmoqda[6].


2022-yilda faoliyat ko‘rsatgan tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 39 078 tani (yoki jamiga nisbatan 7,5 %) tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha eng ko‘pi Toshkent shahri (10 906 ta), Toshkent viloyati (4 995 ta), Samarqand viloyati (3 289 ta) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2 593 ta) hissalariga to‘g‘ri kelmoqda[7].

2022-yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi 3 824,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Bu 2021 yilga nisbatan 824,6 milliard so‘mga ko‘p[8].

2022-yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 798,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Bu esa 2021- yilning mos davriga nisbatan bajarilgan qurilish ishlarini 227,6 mlrd. so‘mga oshganini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan ayollar rahbarligidagi kichik biznes subyektlarining holatini alohida hududlar kesimida tahlil qilsak, 2022 yildagi statistika agentligi bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, eng past ko‘rsatkich Andijon (1098 ta), Namangan (1111 ta) va Sirdaryo (1238 ta) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

¹ <https://t.me/uzstataxborot/64783>



1-rasm. Hududlar kesimida tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2021- yilda faoliyat ko'rsatgan tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 36 475 tani (yoki jamiga nisbatan 11,3%) tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng ko'pi Toshkent shahri (9 764 ta), Toshkent viloyati (4 760 ta), Samarqand viloyati (2 974 ta) va Navoiy viloyati (2 544 ta) hissalariga to'g'ri kelmoqda. Ma'lum bo'lishicha, o'tgan 6 oy davomida ayol rahbarlar boshqaruvidagi tashkilotlarning mahsulot sotishdagi sof daromadi 22,6 trln so'mni tashkil etgan. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7 trln so'mga oshganini ko'rsatadi.

2021- yilda faoliyat ko'rsatgan tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori savdo sohasida 14147 ta (yoki jamiga nisbatan 4,4 %), xizmat ko'rsatish sohasida 10057 ta (3,1%), sanoat sohasida 5543(1,7%) tani tashkil etdi[9].

2021-yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarda mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan olingan sof foydasi 22 567,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilga nisbatan 6 856,7 mlrd. so'mga ko'paygan. Shuningdek, jami kichik korxonalar tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan olingan sof foydaning 5,4%i ayol tadbirkorlar hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa bu ko'rsatkich quyidagi ko'rinishga ega: savdoda – 12 843 mlrd. so'm; sanoatda – 3 952,5 mlrd. so'm; xizmatlar ko'rsatish sohasida – 3 773,9 mlrd. so'm; qurilishda – 1 619,7 mlrd. so'm; qishloq xo'jaligida – 378,5 mlrd. so'm[10].

2021-yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarda yil oxiriga mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni 117,7 ming kishini tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 6,2 ming kishi yoki 105,5 %ga ko'paygan.

Hududlar kesimida ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarda eng ko'p mehnat daftarchasiga ega bo'lgan xodimlar Toshkent shahrida 41,8 ming kishi, Toshkent viloyatida 15,3 ming kishi, Samarqand viloyatida 8,1 hamda Buxoro viloyatida 6,5 ming kishini tashkil etdi.

2021-yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarda xodimlarga hisoblangan ish haqi ko'rinishidagi daromadlari miqdori 1 702,7 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 1 212,2 mlrd.so'mga teng bo'lgan hamda mos ravishda

2020-yilga nisbatan xodimlarning ish haqi ko‘rinishidagi daromadlari 490,5 mlrd.so‘mga oshgan.

Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021-yilda kichik korxonalar va mikrofirmalarga rahbarlik qilgan ayollar sanoat sohasining eng ko‘pi kiyim-kechak va to‘qimachilik yo‘nalishida 1 836 nafar yoki jami sanoatda rahbarlik qilayotgan ayol tadbirkorlarning 33,1 %i, oziq-ovqat sanoatida 1 761 nafar yoki 31,8 %i, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatida 410 nafar yoki 7,4 %i, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatida 198 nafar yoki 3,6 % ni hamda mebel ishlab chiqarish sanoatida 192 nafar yoki 3,5 % ni tashkil etdi.

Ushbu yilda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 571,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bu esa 2020-yilning mos davriga nisbatan 182,1 mlrd.so‘mga ko‘p demakdir[11].

2021- yilda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi 5 881,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bu esa 2020 - yilning mos davriga nisbatan 1 626,4 mlrd.so‘mga ko‘p demakdir[12].

Tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan olingan sof foyda (zarar (-)) 2021- yilda 1388,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bu esa 2020-yilning mos davriga nisbatan 592,2 mlrd.so‘mga ko‘p demakdir[13].

2021- yilda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan olingan foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda 1841,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bu esa 2020- yilning mos davriga nisbatan 681,6 mlrd.so‘mga ko‘p demakdir[14].

2021- yilda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari 2 999,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bu esa 2020 - yilning mos davriga nisbatan 2 168,4 mlrd.so‘mga ko‘p demakdir.

2021- yilda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum 22 567,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha eng ko‘pi Toshkent shahri (11 975,0 mlrd. so‘m), Toshkent viloyati (2 194,6 mlrd.so‘m), Buxoro viloyati (1 161,8 mlrd. so‘m) va Farg‘ona viloyati (1 120,2 mlrd. so‘m) hissalariga to‘g‘ri kelmoqda[15].

2021-yilda ayollar boshchiligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1 571,1 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Bu 2020 yilning tegishli davriga nisbatan 182,1 milliard so‘mga ko‘p[16].

Ayollar tadbirkorligi faoliyatiga baho berish uchun Respublika miqyosida ayollarning korxonalaridagi ulushi tahlil qilish va ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rnini baholash g‘oyatda muhimdir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkor ayollar soni yillar davomida o‘sib borish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Biroq oldimizga qo‘ygan ustuvor vazifalarimiz erishish va gender tenglikni ta‘minlash uchun mamlakatdagi ayollar tadbirkorligi holatiga baho berish, ularni so‘nggi olti yillikdagi faoliyatini tahlil qilish kerak (1 – jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan ayollar raxbarligidagi korxonalar ulushi (foiz)[17]

No	Hududlar	Yillar
----	----------	--------


		2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	2	3	4	5	6	7	8
1	O'zbekiston Respublikasi	21,9	14,9	24,1	38,0	29,2	28,7
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	11,7	18,5	29,3	43,8	30,9	29,5
3	Andijon	22,4	5,5	23,7	30,5	23,3	21,9
4	Buxoro	19,2	18,5	27,5	34,5	25,9	24,3
5	Jizzax	17,4	12,4	20,1	55,2	30,9	28,8
6	Qashqadaryo	19,3	20,9	22,7	33,7	38,7	37,3
7	Navoiy	25,4	27,7	30,7	46,9	34,4	33,2
8	Namangan	13,9	19,1	14,7	55,6	21,0	19,8
9	Samarqand	28,1	7,5	24,6	47,5	41,1	40,2
10	Surxondaryo	32,9	5,6	33,9	55,8	26,5	25,3
11	Sirdaryo	19,0	15,9	20,3	24,4	19,0	17,9
12	Toshkent	24,5	24,3	24,3	43,5	26,9	25,2
13	Farg'ona	23,8	15,9	18,3	14,2	27,2	25,7
14	Xorazm	11,0	16,9	25,8	42,7	45,5	43,8
15	Toshkent shahri	36,0	14,0	18,2	28,4	21,9	20,3

Tahlillarning ko'rsatishicha, o'rganilayotgan davr mobaynida mamlakatimizda ayollar rahbarlik qilayotgan firmalarning ulushi qariyb 6,8 foizga oshganini ko'rish mumkin. Jumladan, ushbu xududlardagi eng baland ko'rsatkich Xorazm viloyatida (32,8%)ga, Qoraqalpog'iston Respublikasida (17,8%)ga, Samarqand viloyatida (12,1%) ga oshgan. Pasayish tendensiyasi kuzatilayotgan xududlar, xususan, Toshkent shahri (15,7%)ga, va Surxondaryo viloyati (7,6%)ga, Andijon viloyatida esa bu ko'rsatkich (0,5%) ga kamaygan. Ushbu xududlarda bu ko'rsatkichning pasayishiga aholi zichligi, ayollarning katta qismini farzandlar tarbiyasi bilan tadbirkorlik faoliyatini birga olib borishni xoxlaganlari bilan bog'liq. Shu sababli ular o'z faoliyatlarini rasman qayd etmaganlar. Keyinchalik ushbu holatlar mamlakatning aholi daromadlarini to'g'ri baholay olmasligi, tadbirkorlarning davlat tomonidan qo'llab – quvvatlashga doir dasturlaridan foydalana olmasligi sabab bo'ladi. Shuningdek mamlakatda yashirin iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi. Xozirgi kunda 2023- yilning dastlabki yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi yashirin iqtisodiyotida 99 581,7 mlrd so'm yalpi qo'shilgan qiymati yaratilgan[18].

Andijon viloyati shaxar va tumanlari hududiy xususiyatlarga ham ega. Shu bois, ayollar tadbirkorligining viloyat hududlari kesimidagi sonini o'rganish zarur. Bunda, ularni rivojlantirish ko'rsatkichlarini aniqlash, unga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tadqiq etish hamda solishtirma baholash orqali nisbiy ustunliklarni aniqlanadi.

Andijon viloyatida ayollarning tadbirkorlik faoliyati o'rganilayotgan davrda deyarli o'zgarmagan (2- rasm). O'rganilayotgan davr mobaynida eng yuqori ko'rsatkich 2021 yilda 5,9 foizni tashkil etgan. Bunga 2021 yil 24 apreldagi **“Xotin – qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun yaratilgan shart – sharoitlar to'g'risida”** gi O'zbekiston Respublikasi

Oliy majlisi senatining SQ – 286 – IV – son qarorini qabul sabab bo‘ldi Ushbu qaror doirasida ayollar orasida tadbirkorlik qilish istagi bo‘lgan xotin – qizlarni aniqlash, ularning tadbirkorlik yo‘nalishida moliyaviy savodxonligini oshirish, ularga kreditlar ajratish kabi yo‘nalishlarda mahallalar kesimida targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirishga urg‘u berilgan. Shuningdek mahallalarda xotin – qizlarning biznes g‘oyalarini aniqlash va yuqori samarali tadbirkorlik loyihalarini moliyaviy qo‘llab – quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatini endi boshlagan tadbirkor xotin – qizlar muammolarini xal qilish choralariga e‘tiborni kuchaytirish vazifalari yuklandi. Yuqoridagi chora tadbirlarni amalga oshirilishi o‘z natijasini ko‘rsatdi(2-rasm).



2- rasm. Andijon viloyati iqtisodiyotidagi tadbirkor ayollar sonining o‘zgarishi, (foizda)[19]

Ayollar rahbarligidagi kichik biznes sub’ektlarining Andijon viloyati tuman va shaxarlari kesimidagi faoliyati taxlili, eng yuqori ko‘rsatkich Xo‘jaobod tumani (3,8%)ga, Izboskan tumanida (2,7%)ga, Andijon shaxrida (2,7%)ga oshgan. Pasayish tendensiyasi kuzatilayotgan xududlar, xususan, Oltinko‘l tumanida (3,3%)ga, Buloqboshi tumanida (6,1%)ga, Bo‘ston tumanida (2,7%)ga pasaygan.

Ma‘lumotlar taxlilidan ko‘rinib turibdiki, Andijon viloyati shaxar va tumanlarida ayol tadbirkorlarning ulushi 2019 – 2021 yillar oralig‘ida yuqori ko‘rsatkichlarni aks ettirgan. 2022 yildan boshlab bu tendensiya pasaygan. Bu viloyatimiz ayollarining ushbu davrda tadbirkorlikka bo‘lgan ichki motivatsiyasining pasaygani bilan bog‘liq. Chunki, maqsadlarga erishish uchun motivatsiya, tavakkalchilikka moyillik, ijodkorlik, stressga bardosh berish qobiliyati tadbirkor uchun zarur bo‘lgan asosiy xususiyatlardir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston respublikasi iqtisodiyotida ayollar tadbirkorligi so‘nggi yillarda o‘sib borish tendensiyasini ko‘rsatgan. 2023 – yilda ayollar tadbirkorligining soni 2020 yilga nisbatan 13 % foizga o‘sgan. Bunga esa mamlakatimizda

ayollar tadbirkorligini rivojlantirish borasidagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28 - maydagi SQ-297-IV-son “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori kabi qonuniy hujjatlar dasturul – amal bo‘ldi. Erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Shu boisdan ushbu muammolarni hal qilish borasida quyidagilarni **taklif qilamiz**:

1. Xotin – qizlarning ta’lim olishiga qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning o‘rnini yanada oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rgangan holda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif qilinadi:
2. Xotin – qizlar o‘rtasida “*raqamli savodxonlik*” va yumshoq ko‘nikmalar (*Soft skills*)ni targ‘ib qilish va kengaytirish bo‘yicha tadqiqot olib borish, tezlashtirilgan ayol kadrlar tayyorlash tizimini yaratish.
3. Ommaviy axborot vositalarida xotin-qizlarni faqatgina uy bekasi rolida emas, balki ilm-fan, texnika, yangi texnologiyalar sohalarida ko‘rsatish.
4. Moliyalashtirish va rag‘batlantirishning ko‘p kanalli mexanizmlarini rivojlantirish.
5. Tajriba tarqatish xizmatlarini yaratish (*extension service*) – olima xotin-qizlar va talabalarning tadbirkorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish.
6. Hududlarda yosh tadbirkor ayollar uchun professional konsalting xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, biznes yuritish, bilimni monetizatsiya qilish sirlarini o‘rgatish.
7. Xotin-qizlar o‘zlarini namoyon etib, jamiyatda munosib o‘rin egallashga imkon beradigan “*sotsial lift*” larni yaratib berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. <https://tashkenttimes.uz/national/12592-ebrd-supports-women-s-entrepreneurship-in-uzbekistan>
2. <https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-ayollar-tadbirkorligi>
3. <https://t.me/uzstataxborot/64783>
4. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/56765-tadbirkor-ayollar-qaysi-hududda-ko-proq-faoliyat-yuritmoqda-4>
5. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/56882-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonava-mikrofirmalar-tomonidan-asosiy-kapitalga-kiritilgan-investitsiyalar>
6. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/56801-tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonava-mikrofirmalar-tomonidan-mahsulot-sotishdan-tushgan-sof-tushum-5>
7. <https://uzreport.news/economy/ozbekistonning-qaysi-hududida-tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonava-mikrofirm>
8. <https://stat.uz/ru/press-tsentri/novosti-goskomstata/45301-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonava-mikrofirmalarning-asosiy-kapitalga-kiritilgan-investitsiyalari-hajmi-4>
9. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/24162-tadbirkor-ayollar-qaysi-sohada-ko-proq-faoliyat-olib-borishini-bilasizmi>
10. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/33022-ayollar-rahbarligidagi-kichik-tadbirkorlik-subyektlarining-asosiy-ko-rsatkichlari-2>

11. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/29496-tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonava-mikrofirmalar-tomonidan-bajarilgan-qurilish-ishlari-hajmi-2>
12. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/29149-tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonava-mikrofirmalar-tomonidan-ishlab-chiqarilgan-ko-rsatilgan-xizmatlar>
13. Tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonava mikrofirmalar tomonidan olingan sof foyda (zarar (-)) (stat.uz)
14. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/29080-woment21>
15. <https://stat.uz/ru/press-tsentri/novosti-goskomstata/28820-tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonava-mikrofirmalar-tomonidan-mahsulot-tovarlar-ishlar-va-xizmatlar-sotishdan-tushgan-sof-tushum-2>
16. <https://stat.uz/ru/press-tsentri/novosti-goskomstata/29497-tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonava-mikrofirmalar-tomonidan-bajarilgan-qurilish-ishlari-hajmi-3>
17. <https://gender.stat.uz/>
18. <https://stat.uz/ru/press-tsentri/novosti-goskomstata/56880-o-zbekiston-respublikasida-yashirin-iqtisodiyotning-yalpi-qo-shilgan-qiymati-qanchani-tashkil-etgan-2>
19. Andijon statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

